

**2-3-SINF AQLI ZAIF O'QUVCHILARIDA O'QISH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

**Xamrayeva Iroda Sayfullayevna**

TDPU Oligofrenopedagogika

kafedrasi dotsenti v/b, PhD.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 2-3-sinf aqli zaif o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirishning innovatsion usullaridan bo'lgan Doman metodikasini amalga oshirish yo'llari yoritilgan.

**Аннотация:** В этой статье обсуждаются способы применения методологии Домана, одного из самых новаторских способов развития навыков чтения у умственно отсталых учащихся 2-3 классов.

**Annotation:** This article discusses how to apply Doman's methodology, one of the most innovative ways to develop reading skills in mentally retarded pupils in grades 2-3.

**Kalit so'zlar:** aqli zaiflik, o'qish jarayoni, o'qish ko'nikmasi, o'qishni shakllantirish, Doman metodikasi.

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim mакtablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, yordamchi maktablar va ommaviy va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-tehnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim doimiy o'zgarib, yangilanib turadigan jarayon, shu bois bugun maxsus pedagogikada o'quvchilarni o'qishga o'rnatishning an'anaviy metodlaridan tashqari innovatsion usullari ham paydo bo'ldi. Biz ilmiy rahbarimiz bilan birgalikda Respublikamizda mavjud bo'lgan bir qancha

yordamchi maktablarda ilmiy tadqiqot ishini olib bordik. Xususan, Sergeli tumanidagi 33-sonli ixtisoslashtirilgan yordamchi maktabda ham 2-3-sinf aqli zaif o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllanganli holatini o'rgandik. Tadqiqot ishimiz davomida 2-3-sinf o'quvchilarining ko'pchiligi aqliy rivojlanishning o'rta va og'ir darajadagi aqli zaif o'quvchilar bo'lib, ular ham ta'lim olayotganliklarini guvohi bo'ldik. Tabiiyki bunday o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi innovatsion ta'lim usullaridan samarali foydalanishi hamda o'quvchilarga individual yondashishi lozim. Shunday samarali innovatsion usullardan biri Doman metodikasıdır. Ushbu metodika (global o'qish metodikası) aqli zaif o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda innovatsion usullardan biri bo'lib, o'quvchining uzoq vaqt mobaynida muntazam ravishda yozilgan so'z, so'z birikmasi va qisqa sodda gaplarni ko'rib hamda eshitib turishiga asoslanadi. Metodika bosqichlarga bo'lingan holda olib boriladi.

Alovida so'zlarni o'qish. Dastlab, biz 10 ta so'zdan foydalandi. O'quvchiga ko'rib olishi uchun so'zlar yozilgan kartochkalarni birining ketidan ikkinchisini taqdim qilib bordik. Oldin o'quvchiga "Ona" so'zi yozilgan kartochkani ko'rsatdik va aniq qilib: «Bu "ona" so'zini anglatadi, aynan shu taqlidda "Ota" so'zi yozilgan kartochkani hamda 3 ta 3-4-harfdan iborat boshqa so'zlarni taqdim qildik.

Tadqiqotning avvalida o'quvchiga Doman kartochkalarini yana 3 martadan ko'rsatdik (o'quvchiga kartochkalarni ko'rsatish oralig'i yarim soatdan kam bo'lmasligi kerak). O'quvchini o'qishga o'rgatishning mazkur bosqichiga sarflanadigan umumiyligi vaqt 5-6 daqiqadan oshmasligi maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlarning keyingi kunlari mobaynida biz asosiy topshiriqlarni 3 martadan takrorladik, ya'ni Doman kartochkalarining yangi so'zlar to'plamidan 3 marta kartochkalar jamlanmasini namoyish qilib berdik. Tadqiqotimiz davomida biz 5 so'zdan iborat 3-to'plamni o'quvchiga qo'shib o'rgatdik. Bu gal har biri 5 so'zdan tashkil topgan 3 to'plamdan foydalandik. Bunda har bir so'zlar to'plamini 3 martadan taqdim qilindi. Mashg'ulotlarning umumiyligi sonini kun davomida 9 taga oshirdik, lekin alovida olingen har bir mashq 5-10 daqiqadan oshirilmadi.

Tanlangan dastlabki 15 ta so'z o'quvchi uchun yaqin va yoqimli bo'lishi talab etiladi. So'zlar oila a'zolari va qarindoshlarning ismi, sevimli mahsuloti, uy hayvonlarining nomlaridan olinishi mumkin. Mazkur bosqich natijasi o'quvchida o'qish ko'nikmasini shakllantirish bilan belgilanadi.

Biz o'quvchilar 15 ta so'zni o'qishni o'rganganidan so'ng, keyingi guruh so'zlariga ya'ni, badiiy asarlardan olib yozilgan so'zlarni o'qishga o'tamiz. Ushbu jamlanma 25 ta so'zdan iborat 5 to'plamdan tashkil topadi.

Har safar yangi so'zlarni qo'shish va oldin o'rgangan so'zlarini olib tashlash tavsiya etiladi. Buning uchun biz har bir to'plamdan bittadan so'zni olib tashladik, tadqiqot davomida mavjud so'zlarni yangilari bilan almashtirdik. Har bir to'plamdagi so'zlar bilan shu taqlid o'qitish ishlari amalga oshiriladi. Keyin shu tarzda fe'llarni o'rganishga o'tdik.

Shunday qilib, biz kuniga har biri 5 so'zdan iborat 5 to'plamni, ya'ni 25 ta so'zni o'qishni o'rganishga muvaffaq bo'lidi. Har kuni o'quvchi mavjud to'plamlardan bittadan eski so'zlarni olib tashlash hisobiga kiritilgan 5ta yangi so'z bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. O'rta hisobda o'quvchi kuniga 5 ta so'zni eslab qolishi talab etiladi, jarayon dinamik tarzda kechgan sharoitda maksimum 10 ta so'zni tashkil qiladi.

So'z birikmasi Doman metodi bo'yicha o'qishni o'zlashtirishning ikkinchi bosqichi alohida so'zlar hamda yaxlit gaplarni o'qishning oralig'i hisoblanadi. Avval o'quvchining so'z zahirasini tahlil qilib, u o'zlashtirgan so'zlar yordamida qanday so'z birikmalari tuzish to'g'risida o'ylab oldik. Eng sodda va talab qilinadigan so'zlar guruhi bu hayotdagi asosiy ranglar ro'yxati sanaladi. O'quvchi asosiy ranglarni ajratish va talaffuz qilishni juda tez o'rganib oldi, so'ngra biz unga "qora sochlar", "sariq banan" kabi sodda so'z birikmalarini taklif qildik. Ma'lum vaqtdan so'ng biz uni «toza-iflos», «o'ng-chap» singari antonimlar bilan tanishtirildi. So'ngra biz o'quvchini so'zlar yozilgan kartochkalarning orqasiga yorqin ranglarda chizilgan illyustratsiyalar bilan tanishtirildi. "Katta" va "kichik" – bu aqli zaif o'quvchilar uchun bevosita kundalik hayotlari bilan bog'liqligi bois juda sodda tushunchalar sanaladi: «katta qoshiq», «kichkina qoshiq».

Sodda gaplar (2-3 so'zdan iborat)

3-bosqichda so'z birikmalari asosida sodda gaplar tuzish vazifasi qo'yiladi. Bu paytga kelib o'quvchilar 75 ga yaqin so'zlarni o'qish olish ko'nikmasini o'zlashtirgan bo'lishi talab qilinadi. Buning uchun siz 5 ta jumlani tuzishingiz va o'quvchiga kuniga uch marta 3-5 kun davomida ko'rsatishingiz kerak. Keyin 2 ta eski jumlani o'chirib tashlang va ularni 2 ta yangi jumla bilan almashtiring. O'quvchi ularni tezda o'rganib oldi va biz yangi jumlalarga o'tdik.

Yoyiq jumlalar (3 yoki undan ortiq so'zdan iborat)

4-bosqichga kelib o'quvchi so'zlarni o'zaro farqlashni o'rgangandan keyingi ikkinchi jiddiy qadamga o'tadi. Endi u yoyiq gaplarni tushunish holatiga yetadi. Bu bosqichda yordamchi so'zlar va ravish so'z turkumi ishtirok etgan so'zlar (ular ko'p bo'lmasligi kerak) dan kartochkalar tayyorladik va o'quvchiga ayrim gap, kitobdan ba'zi matnlarni ovoz chiqarib o'qigan holda yangi o'quv materiallarini ko'rsatishni boshladik.

O'quvchi o'zi mustaqil ravishda turli so'zlarni eshittirib o'qish hamda yaxlit gaplarni ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Ayrim so'zlarni va ularning ma'nolarini bilish –bu global o'qishga o'rtatishda birinchi va asosiy qadam.

Domanning ushbu 4-bosqichida ham uchinchi bosqichdagi tamoyillardan foydalilaniladi, faqat so'z va gaplarning miqdori asta-sekinlik bilan oshirib boriladi. Masalan, «mushuk uxlayapti» gapi «mushuk qattiq uxlayapti» gapi bilan almashtiriladi.

5-bosqichda bizga har bir sahifasida katta miqdordagi so'zlarni jamlagan kichik shriftlarda yozilgan matnlar bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Bu bosqichda siz o'quvchini o'qishga o'rgatadigan kitobni to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki global o'qishda mazmun birlamchi ahamiyatga ega, ya'ni kitob nima to'g'risida yozilganini o'quvchi tushunishi kerak. U o'quvchilarga tanish bo'lgan 50 dan 100 gacha so'z va gaplardan tuziladi, yana bir sharti 1 sahifada 1tadan ortiq gap bo'lmasligi kerak; shriftning bo'yli 1 smdan kichik bo'lmaydi; matn yaqqol ko'zga tashlanadigan kartinalarda ham o'z aksini topadi. Vazifa endi o'quvchiga tanish bo'lib ulgurgan so'z va gaplardan iborat bo'ladi. Unda bir varaqdagagi gaplar miqdori bittadan oshib ketmasligi talab etiladi. Shuningdek, o'quvchi bilan o'z kitobini ham yaratish mumkin bo'ladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Sholg'om", «Maqtanchoq xo'roz», «Bo'g'irsoq», «Ur to'qmoq», «Uch og'ayni botirlan», «Bo'ri va echki bolalari», «Mushuk, xo'roz va tulki», «Oltin tarvuz» singari ertaklar asosida shaxsiy kitob tayyorlash mumkin. Keyinchalik esa, turli sevimli mavzular asosida rasmlı kitoblar, masalan, «Yil fasllari», «Transport», «Kiyim» singari tematikalarda tayyorlash tavsiya etiladi. O'quvchilar uchun «Mening oilam» mavzusidagi shaxsiy rasmlı kitob yaratish ham katta quvonch bag'ishlaydi.

Global o'qishning ustunligi so'zni (so'z birikmasi va gap) o'qish bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish, nutq-harakat orqali amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Metodika asli shifokor bo'lgan, keyinchalik esa psixolog-pedagog tomonidan aqliy faoliyati buzilgan o'quvchilarni davolash maqsadida ishlab chiqilgan. Metodika o'quvchi miya faoliyatini faollashtiradi va shuning hisobiga ularda ma'lum bir bilimlar tizimini shakllantiradi. Doman metodikasi bo'yicha aqli zaif o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirish samarali bo'lib, global o'qish metodikasi nafaqat "alohida ehtiyojli" o'quvchilar, balki rivojlanishi meyordagi o'quvchilar uchun ham o'qishi bilan bog'liq mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishida foydalanimoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Аксенова А.К. Методика обучения русскому языку в специальной (коррекционной) школе. М.: Владос, 2004. – 316 с.
2. Воронкова, В.В. Олигофренопедагогика: учебное пособие / В.В. Воронкова, Т.В. Алышева [и др.]; под. ред. В.В. Воронковой. – М.: Дрофа, 2009. – 400 с.
3. Доман Г. и Д. Как научить ребенка читать / Пер. с англ. – Спб.: Дельта, 1996. - 352 с.
4. Егоров, Т.Г. Психология овладения навыком чтения / Т.Г. Егоров. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 304 с. – ISBN 5-89815-774-3.
5. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Вопросы психологии учебной деятельности младших школьников. М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1992. - 287 с.